

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXEOLOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддигов Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ	260
27. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ (XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)	268

Muxamedov Y. K.

«Arxeologiya va etnologiya» kafedra katta o'qituvchisi., PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

mukhamedov-2017@mail.ru

G'ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

ANNOTATSIYA

Maqolada G'arbiy Turk xoqonligining Eron sosoniylar davlati bilan olib borgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlari, elchilik aloqalari yozma va arxeologik manbalar asosida yoritilgan bo'lib, mazkur masalani tadqiq qilishda asosan xorijlik va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy qarashlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlari ilmiy asosda tahlil qilinib yoritilgan.

Kalit so'zlar: G'arbiy Turk xoqonligi, Vizantiya, Eftaliylar, Sug'd, sosoniylar, Maniax, Ashina, Oltin tog', Zemarx, Talas, Yabg'u, xoqon, elchi, Buyuk ipak yo'li, ipak, temir, Isfaxon.

KIRISH

Bugungi kunga kelib, xalqaro diplomatik munosabatlar borasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari talaygina bo'lsa-da, biroq ilk o'rta asrlar davridagi ayniqsa yirik davlat sifatida xalqaro maydonda o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lgan, Turk xoqonligining ichki va tashqi siyosatini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Mazkur masalani yoritishda M.I. Artamonov, L.N. Gumelev, S.G. Klyashtorniy, N.V. Pigulevskaya, N.Y. Bichurin, K.V. Trever, A.N. Bernshtam, M. Isxoqov, A. Ataxojayev, A. Xodjayev, B. G'oibov, G' Babayorov, A. Kubatin, kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy qarashlarini berib o'tganlar. Shuningdek xorijlik olimlardan P. Golden, S. Beal, de la É Vaissière'lar xam ma'lum bir ilmiy yondashuvlarini keltirib o'tishgan. G'arbiy Turk xoqonligining qo'shni davlatlar bilan o'zaro ichki tashqi aloqalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Jahondagi geopolitik jarayonlarni taxlili shuni ko'rsatadiki, Turk xoqonligining tarix saxnasiga kirib kelishi, bevosita bir nechta yirik imperiyalarni jumladan, Eron sosoniylari, Xitoy (Suy va Tan), Vizantiya imperiyalari bilan o'zaro bog'liq xoldagi tarixiy jarayonlar turli manbalarda tilga olingan jahonning to'rt imperiyasi konsepsiyasiga muvofiq o'rganilgan.

Turk xoqonligining savdo madaniy va xalqaro diplomatik minosabatlar olib borishi uning xalqaro maydondagi nufuzini ortishiga sabab bo'ldi. Mazkur masalada G'arbiy Turk xoqonligining Eron sosoniylari bilan olib borgan o'zaro savdo tijoriy aloqalari muxim ahamiyat kasb etgan.

Turklarning xalqaro diplomatik munosabatlari borasida L.N. Gumelev o'z asarida Turklarning yagona imperiyaga aylanib qudratli davlat sifatida tarix saxnasiga kirib kelishida ularning harbiy kuch qudrati muhim o'rin tutganligini quyidagicha talqin qilib o'tadi: "Qadimgi turklar maxoratli intizomiy xarbiy qo'shinga egaligi sababli o'zlarining erishgan g'alabalari tufayli dunyoning teng yarmiga egalik qilishlari tasodifiy xodisa emas edi. Ularning ko'chmanchilik hayotidan o'troq turmush tarziga o'tishlari natijasida, ancha yuqori pog'onaga ko'tarilib yuksalib borgan sari harbiy qo'shin va davlatchilik boshqaruv tizimini ishlab chiqdilar, buning pirovardida esa ulkan g'alabalarni qo'lga kiritdilar deya ishonch bilan ta'kidlash mumkin" [1]. Demak, turklarning nafaqat xarbiy mahoratda ustunligi, balki savdo iqtisodiy va diplomatik munosabatlar olib borish tajribasi yuqori ekanligini anglatadi.

Markaziy Osiyoning sharqida Xitoyning Shimoliy Vey (Toba 385–556) sulolasi hukmronlik qilgan. Mintaqaga janubi-sharqdan qo'shni hududda esa o'z davrining eng yirik siyosiy kuchlaridan biri Sosoniylar imperiyasi joy olgan edi. Turklar Xuroson uchun doimo Eftalitlar bilan raqobatda bo'lib kelganlar. Turklarning tarix saxnasidan o'rin olishini sosoniylari ham xuddi Xitoyga o'xshab mintaqada yangi bir davlatning paydo bo'lishini xayrixohlik bilan kutib oladilar va tez orada Turk xoqonligi bilan aloqalarni yo'lga qo'yib, Eftalitlarga qarshi siyosatini xar tomonlama qo'llab quvvatlaydilar.

Turk xoqonligi va sosoniylarning Eftalitlarga qarshi ittifoqning qachon tuzilganligi, shuningdek, turklarning eftalitlarga birinchi hujumni boshlanishi bilan bog'liq jarayonlar xaqida turli yondoshuvlar mavjud. Xususan, "Xazarlar tarixi" kitobining muallifi M.I. Artamonov At-Tabariy asarida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, 553 – 554 - yillarda eftaliylarga qarshi ittifoq tuziladi. Mazkur ittifoq nikoh yo'li bilan mustahkamlanganligini qayd etib o'tadi[2]. Turk xoqoni Muqan xoqon 554 – 557-yillarda sosoniylarga elchi yuborib, ikki tomonlama aloqa va ishonchni mustahkamlash maqsadida amakisi Istemi yabg'uning qizi Asna (arab. Asna yoki Fakim, arman. Kayen)ni sosoniylar shohi Xusrav I Anushervon (531-579)ga nikohlab beradi[3]. Mazkur kelishuvni, Eron diplomatiyasining pragmatizmi yoki hukmdorlarning uzoqni ko'zlash siyosati sifatida baholash mumkin.

Turk xoqonligi va Sosoniylar o'rtasida o'rnatilgan ittifoqdan ko'zlangan maqsad:

1. Turk xoqonligi va Sosoniylar bilan birgalikda, eftaliylarga qarshi kurash olib borish;

2. Buyuk ipak yo'lida savdo-sotiq aloqalarini olib borishda hamkorlik qilish;

3. Eftaliylar qo'l ostidagi erlarni taqsimlashda adolatli yo'l tutish.

Bu ittifoqdan xavotirga tushgan eftalit shohi Gatfar turklarning Sug'd orqali o'tayotgan elchilarini o'ldirtirib yuboradi. Natijada, har ikkala tomon o'rtasidagi urush muqarrar bo'lib qoladi. Sosoniylar hukmdori Xusrav Anushervon Balx yaqinida 562 (563) - yilda eftaliylarga zarba berishi bilan urush xarakatlari boshlanib ketadi[4]. Turklar ham eftalitlarning hududiga birin - ketin bostirib kirib ularga zarbalar berib xoldan toydiradilar. Turklar bilan Sosoniylar birlashgan qo'shni ishtirokidagi Eftaliylarga qarshi xal qiluvchi janglar 565 - yilda Naxshab yaqinida bo'lib, urush eftaliylarning mag'lubiyati bilan tugaydi[5]. Mazkur urush oqibatida Sug'dning eng yirik shaharlaridan biri Yerqo'rg'on o'rnida joylashgan Nikshayappa butunlay vayron qilinadi[6].

Eftaliylari yerlari turklar bilan Sosoniylar o'rtasida bo'linib olinadi: hususan turklar Sug'dni, forslar esa Baqtriya va Toxaristonni o'z hududlariga qo'shib oladilar[7].

Xalqaro maydondagi kurashlar shu bilan tugallanmasdan, boshqa iqtisodiy va siyosiy masalalarni yuzaga kelishiga olib keladi. Jumladan, Xusrav Anushervon va Istemi yabg'u o'rtasida eftaliylarning merosini bo'lib olish uchun boshlangan harakatlar, hamda Buyuk ipak yo'li ustidan nazorat o'rnatishga bo'lgan intilishlari o'zaro ziddiyatlarni yuzaga keltiradi[8]. Natijada, Turk xoqonligi va Sosoniylari o'rtasidagi bitim o'z kuchini yo'qotib, ikki davlat urushga tayorgarlik ko'ra boshladi. Sosoniylar turk savdogarlarini Buyuk Ipak yo'lining O'rta Osiyodan Eron orqali Vizantiya imperiyasigacha borgan yo'nalishlarda savdo aloqalarini olib borishiga qat'iy cheklovlar qo'yadilar. Bu xolat turk savdogarlarini og'ir axvolga solib qo'yadi. Mazkur vaziyatdan chiqish uchun Turk xoqonligi Sosoniylarga nisabatan diplomatik yo'l orqali xolatni yumshatish maqsadida sug'd savdogari Maniax boshchiligidagi elchilar guruxini yuboradi[9]. Elchi Maniax Sosoniylar yurtiga Kaspiy dengizini shimoliy tomonidan aylanib, Kavkazni kesib o'tib, Qora dengiz orqali etib boradi. Ushbu bosib o'tgan yo'llari "Kavkaz Ipak yo'li"ning vujudga kelishiga sabab bo'lgan[10].

Sug'dlik savdogarlar mazkur yo'l orqali savdo tijorat ishlarini olib borishlari, sug'dliklarni mavqeini ortishiga sabab bo'lgan[11]. Bu borada g'arbiy sug'd yo'nalishi bo'yicha yo'llar kesishmasi, Sharqiy Turkiston va janubiy Qozog'iston (Yettisuv)dagi G'arbiy Turk xoqonlarining boshqaruv markazlarini tutashtirib, Poykent, yo'nalishi Amul va Marv hududlaridan o'tgan yo'llar Eron bilan bog'lagan [12]. Mazkur yo'llarda savdo karvonlariga ortilgan maxsulotlarni olib o'tish juda qulay yo'llardan xisoblangan[13].

Eron shoxi Xusrav Anushirvon elchilar keltirgan ipak maxsulotlarni elchilarning ko‘z oldilarida yoqib yuborilishi keskin noroziliklarga olib keladi. Aynan bunday xatti xarakatni amalga oshirishiga, birinchidan, Sosoniylarni ipak maxsulotlarni qo‘shni xududlarga chiqishiga yo‘l qo‘ymasligini anglatga, ikkinchidan ipak matolarni qimmatligi tufayli fors savdogarlari o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy muammolarni shu yo‘l orqali xal qilishi, uchinchidan Ipak maxsulotlarini savdosiga ruxsat bergudek bo‘lsa forslik savdogarlarni og‘ir axvolga solib qo‘yishi natijasida iqtisodiy qiyinchiliklarni oldini olishi sifatida, baxolash mumkin.

Istemi yabg‘u Xusrav Anushervon xuzuriga ikkinchi marotaba elchilar guruhini yuboradi[14]. G‘arbiy Turk xoqonligining yuborgan elchilari ham xech qanday natijaga erisha olmay qandaydir kasallik tufayli vafot etib, xoqon xuzuriga uch-to‘rt nafarigina qaytib keladilar[15].

G‘arbiy Turk xoqoni Istemi yabg‘u Sosoniylar shohini elchilarga nisbatan qilgan suiqasdini xoqon uchun xaqorat deb bilib, urush e‘lon qiladi.

Eron sosoniylariga qarshi birgalikda kurashish uchun unga ittifoqchi zarur edi. G‘arbiy Turk xoqonligi va Vizantiya imperiyasi 567 – 568-yillarda o‘zaro ittifoq kelishuvi imzolanadi. Ushbu kelishuv G‘arbiy turk alohida ta’kidlanishi lozim bo‘lgan masala bo‘lib, mazkur elchilik natijasidan xoqonlik tarkibidagi sug‘diylarning tashqi iqtisodiy aloqalar olib borganliklarini ko‘rish mumkin. Shuningdek, mazkur elchilik natijalari xoqonlik uchun ham foydali bo‘ldi. Turk xoqonligi va Vizantiya o‘rtasida aloqalar o‘rnatilib, ushbu munosabatlar mustahkam ittifoqqa aylangan[16]. Maniax boshchiligidagi elchilik munosabatlarini xoqon Istemi davrida ham Sug‘dning mustaqil tashqi aloqalar olib borishga ruxsat berilganligini tadqiqotchilar keltirishadi[17].

G‘arbiy Turk xoqonligi dastlabki xarbiy xarakatlarni Amudaryodan kechib o‘tib, Jurjon (Gurgon)dagi bir qancha boy shaharlarni egallashi bilan boshlaydilar, lekin, 569 - yili ular yana Sug‘dga qaytib ketadilar[18]. Ushbu xolatga sabab sifatid tadqiqotchilar mamlakatda yuzaga kelgan ichki nizolar tufayli ortga qaytishga sabab bo‘ladi.

Vizantiya imperiyasi va Eron sosoniylar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchiliklar mavjud edi. Buyuk ipak yo‘lining aksariyat qismi Sosoniylar hududiga to‘g‘ri kelganligi sababli, savdo tijorat maxsulotlariga ayniqsa ipak xomashyosi va maxsulotlari uchun bo‘lar narxining oshirishi Vizantiyalik savdogarlarni iqtisodiy qiyin axvolga solib qo‘yadi[19]. Bu xolat ikki yirik imperiyani o‘zaro diplomatik aloqa o‘rnatishga sabab bo‘lgan. Vizantiyaning VI asrdan ipak qurti etishtirishga harakati samara keltirmagach,[20] u yana Sug‘d bilan bog‘landi. Bu xolat G‘arbiy Turk xoqonligi va Vizantiya imperiyasi manfaatlariga mos kelardi.

571-yilga kelib, Vizantiya imperiyasi va sosoniylar o'rtasida urush boshlangach, sosoniylar shohi o'z qo'shinini sharqdan g'arbga olishga majbur bo'ladi. Shu boisdan ma'lum vaqtgacha turklar bilan eftalitlarning hududi masalasida yangi shartnoma tuziladi. Unga ko'ra, Xusrav Anushervon Sind, Bost, ar-Roxaj (Araxosiya), Zobuliston, Toxariston, Dardiston va Kobuliston, shuningdek, eftaliylar boshqaruvidagi Chag'oniyonga ham ega bo'ladi. Turkklarga esa Sug'dlar hududi tegadi[21]. Umuman bu davrga kelib, turklar Qoshg'ar, Xotan, Choch, Farg'ona, Samarqand, Xorazm, Buxoro, Kesh va Nasaf o'lkalarini o'z tasarruflariga oladilar[22].

Eron sosoniylarini erlarini arablar egallab olganidan so'ng zardushtiylar tomonidan tuzilgan "Eronshahr" asarida keltirilgan Sosoniylar imperiyasining Xoqonlikka o'z elchilarini yuborganligi va bu mazmunda xoqonlikning boshqaruv tartibi va unvonlari xaqida qayd etib o'tilgan.*Yabgū-hāgān [ywbh'k'n] ud Sinjēbīg-hāgān [snčy pykh'k'n] ud Čōl-h'g'n [čwlh'k'n] ud wuzurgān (*wuzurg-hāgān)...(Yabg'u-xoqon va Sir jabg'u-xoqon va Cho'rixoqon va ulug'lar (yoki *Ulug'xoqon)) u kabi hukmdorlar xaqida ham keltirib o'tgan[23]. Mazkur masalaga oid, pahlaviy tilida yozilgan "Bundahishn" ("Dunyoning yaratilishi") nomli asarda ham (IX asr) qadimgi turklar, xususan "shimoldagi hukmdor" haqida ham ko'pgina ma'lumotlarni ko'rish mumkin[24]. Mazkur asrada keltirilgan ma'lumotlarni ilmiy tahlili shuni anglatadiki, Eron sosoniylari bilan G'arbiy turk xoqonligi o'rtasidagi ziddiyatlarning yuzaga kelishi sabablari sifatida talqin qilish mumkin

G'arbiy Turk xoqonligi, Eron sosoniylari va Vizantiya o'rtasida yuzaga kelgan xarbiy qarama qarshiliklar bo'yicha Feofilakt Simokatta, evagriyuslarning ma'lumotlari muhim ahamiyatga ega xisoblanadi. Xususan bu borada ularning ilmiy qarashlarini tahlili asosida N.V. Pigulevskaya Ikki buyuk imperiyaning (Xusrav Anushirvon va Yustinian I) buyuk imperiyalar o'rtasida tuzilgan "abadiy tinchlik" sulhi uzoq davom etmadi. 572-573 yillarda Yustinianning vorisi kichik Yustinian II hukmronligining ettinchi yilida kuchlarning manfaatlari harbiy harakatlar bilan hal qilindi[25].

Urush xarakatlarining kelib chiqish sabablari xususida Feofilakt Simokata o'z ilmiy tahlilini berib o'tar ekan, har ikki davlatning ham asosiy ayiblovlari xaqida quyidagilarni keltirib o'tadi:1) forslar himyaritlarni Vizantiyadan uzoqlashishga undashi; 2) forslar turklar va Konstantinopol o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri diplomatik munosabatlar o'rnatishga to'sqinlik qildilar va alanlarni turkiy elchilar bilan muomala qilish uchun o'z tomonlariga og'dirib olishdi[26]. Shuningdek, harbiy harkatlarning jadallashib ketishiga bevosita yana bir omil Buyuk ipk yo'lida savdo sotiq ishlarini olib borish, nazoratini yo'lga qo'yish uchun boshlangan edi. Eron sosoniylari Qora dengiz va Armaniston yerlariga bo'lgan davosini yo'qqa chiqishi,

hamda Turklar bilan Vizantiya o'rtasida ittifoqni mustahkamlanishiga olib kelganligi bilan izohlash mumkin.

Turklar biroz vaqtdan so'ng Qrimga qarshi xarbiy xarakatlarni kuchaytirishib, Bosfor Kavkazdagi Abxaziya, Benjer va Belenjerlarni[27] egallab oladilar, Bosfor amalda Vizantiyaning mustamlakasi bo'lgan. Shuningdek, xarbiy xarakatlar davrida Qrimga yaqin hududlarda yashovchi Alanlar va Qutrig'ur qabilalarining hudud sarhadlari xoqonlik tarkibida bo'lgan[28]. Turklarning bu hududlarni egallab olishlari Vizantiya bilan siyosiy ziddiyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. 582 yilda boshlangan xarbiy istilolar 593 – yilda nixoyasiga etgan[29]. Xarbiy xarakatlarning tugatilishiga yuzaga kelgan ichki tartibsizlik va ziddiyatlar sabab bo'lgan.

Xoqonlik va Vizantiya o'rtasida elchilik munosabatlar 588-589 yillarda Sharqiy Turk xoqoni Tarduxon sababli yana qayta tiklanadi[30]. Biroq, 588 – yilda turklar hokimi Qoracho'rin hazorlar va Vizantiyaliklarning ko'magida Eron sosoniylariga qarshi harbiy xarakat boshlaydi. 589 – yili El Arslon boshchiligidagi turk qo'shinlari Xurosonga bostirib kiradi. Xirot yaqinida ularni sosoniylarning mashhur qo'mondoni Bahrom Cho'bin boshchiligidagi qo'shin qarshi oladi[31]. Manbalarga ko'ra, Bahrom Cho'binning xarbiy xiylasi tufayli turklar yengiladi. Ushbu jangda El Arslon halok bo'ladi[32]. El Arslonning o'g'li Nili boshchiligidagi turklarning Xurosonga yurishi muvaffaqiyat qozonmagach, ular o'rtasida o'zaro kelishuv bitimi imzolanadi[33].

Bu davrda Eron bilan ham munosabatlar yomonlashgan. 588 yildagi Cho'rbug'a (Qoracho'r) xoqon 300 ming qo'shin bilan Sosoniy qo'mondoni Bahrom Cho'bindan mag'lubiyatga uchrab, o'zi halok bo'lgan. 589 yilda Hirotdagi to'qnashuvda uning o'g'li Barmud Tekin (El tegin) asir olinib, "Termiz sulhi"ni imzolagan. Bahrom Cho'bin esa Poykentni egallab, xazinani tuyalarga yuklab Istami yabg'uning qizidan tug'ilgan hukmdori Xurmurzd Turkzodaga jo'natgan[34]. Bu haqida arman tarixchisi va yepiskopi Sebeos: "Bahrom Cho'bin tetali (eftaliy) [35]larni yengib, podshosini jangda o'ldirdi va barcha xazinasini egallab olib ketdi (o'g'irladi)"[36], - deb qayd qiladi. Biroq turklar Sosoniylarga o'z mavqelarni berib qo'ymadilar. 598 – yilda To'nga Turon (To'lon) xoqon (588-600) qo'shinlari Eronning Ray va Isfaxon shahrida Sosoniylarga zarba berdi [37]. Sosoniylar esa Vizantiyani tor-mor etdi[38]. Ipak yo'li nazorati uchun kurash to'xtamagan bo'lsa-da, uning Marvdan Xitoy devorigacha bo'lgan qismi turkiylar va sug'diylar qo'l ostida qoldi.

El Arslonning vafoti natijasida turklarni tannazulga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Ichki ziddiyatlarning avj olishi natijasida o'zaro ittifoqchilik munosabatlarda xech qanday o'zgarishlar ro'y bermaganligini guvohi bo'lish mumkin. Faqatgina 598 yilga kelib xoqon tomonidan Konstantinopol shahriga yuborilgan elchining

imperator Mavrikiyga bergan ma'lumoti bo'yicha xoqonlikdagi barcha ichki ziddiyatlar barxam berilganligi haqida ma'lumot keltirgan[39].

G'arbiy Turk xoqonligi 618 yilda hokimiyatga kelgan Sheguy xoqonning ukasi To'n yabg'u-xoqon davriga kelib, mamlakatda osoyishtalik xukm surgan. Bunga uning mohirona diplomat ekanligi uzoqni ko'ra olish qobiliyati bilan yuksak baholaganligini ko'rish mumkin. Xususan, Xitoy solnomalarining birida yuksak baxo berilgan.: "To'n yabg'u xoqon mard, o'ylab ish ko'radigan, aqlli edi. Uning har bir janggi g'alaba bilan tugar, shuning uchun ham telelarni o'ziga bo'ysundirdi"[40]. tarifidan xam hulosa chiqarish mumkin.

Tun yabg'u xoqon Xuroson, Zobuliston, Kobul, Gandxara, Gibin (Peshovar) va Sind o'lkalarini ham zabt etgach, eftalitlarning Sosoniylarga qaram xokimiyatini tugatib, o'rniga turklarni tayinlaydi. Ushbu noiblar bu erda VIII asr o'rtalarigacha turkiy sulola sifatida hukmronlik qiladilar[41]. Xoqon o'g'li Tardu shad (xit. Datu-she; 618-630)ni Toxariston boshqaruviga tayinlaydi. Bu haqida Syuan Szan shunday yozadi: "Bir necha 100 li masofani bosib o'tilgach, O'kuz (Amudaryo) daryosidan ... o'tib Qunduz (Hwo) podsholigiga keldik. Bu joy To'n yabg'u xoqonning katta o'g'li Datu (Tardu shad) nomli o'g'lining poytaxti. U Toxaristondagi kichik o'lkalar ustidan nazorat qiladi"[42].

Tun yabg'u xoqon davrida 622 – yilda Vizantiya imperatori Irakliy xoqonlikka Andrey boshchiligidagi o'z elchilarni yuboradi[43]. Ushbu tuziladigan ittifoqdan ko'zlangan asosiy maqsad Sosoniylarga qarshi birgalikda kurashish edi. Tun yabg'u xoqon elchini talab va taklifini qabul qiladi hamda elchiga qo'shib 1000 ga yaqin qo'shin bilan kuzatib yuboradi. Elchilar safar chog'ida yuzaga kelgan xaf xatar vaqtida ushbu jangchilar tufayli bartaraf qiladilar. Elchilar Darbandan o'tib kura daryosi orqali imperator huzuriga boradilar[44]. G'arbiy turk xoqonligi tomonidan yuborilgan 1000 kishidan iborat jangchilar deya ma'lumot berilgan bo'lsada, aslini olganda ularning hammasi ham jangchilar bo'lmasdan ma'lum bir qismi savdogar tujjorlarni tashkil qilgan. Sababi ko'plab elchilar bilan birga savdogarlar ham qo'shib yuborilgani bizga ma'lum.

Xoqon Tun yabg'u va imperator Irakliy o'rtasida keyinchalik ham elchilik aloqalarining olib borilishi davomiy bo'lib turgan xususan, 626 yilda To'n yabg'u-xoqon Tbilisi yaqinida Vizantiya imperatori Irakliy(610-641) bilan bo'lgan uchrashuv xususida:"Ziebel va yonidagilar imperatorning oldida egilib, ta'zim qilishdi, imperator esa tojini o'z boshidan olib, Ziebilning boshiga qo'ydi. Va qizi malika Yevdokiyaning unga berishga va'da beradi"[45]. Deya talqin qilingan.

Tardu xoqon davriga kelib, Eron sosoniylari bilan xarbiy xarakatlarini kuchaytirib ko'pgina hududlari qo'shib olinadi. Keyinchalik uning ishlarini avlodlari El arslon va Yeltegin va Bosiylar davom ettirishib, Sosoniylarga qarashli Ray va Isfaxon shaharlari qo'shib olinadi[46]. Mazkur shaharlarning qo'shib

olinishi Sosoniylarning yirik savdo markazini qoʻldan boy berishi natijasida uning iqtisodiy mavqeiga jiddiy taʼsir koʻrsatgan. Mazkur uchrashuvdan soʻng har ikki tomon birgalikda Eron Sosoniylar tarkibida boʻlgan erlarni, xazarlar Ozarbayjon, Gruziya, Darband, Tbilisi, Partav kabi shaharlarni egallab oladilar[47], buni natijasida Gʻarbiy xoqonlik Eron shohi Xusrav parvizni siyosiy hokimiyatdan qulatishga erishadi. Mazkur harbiy harakatlar tufayli Eron Sosoniylarni siyosiy mavqeiga jiddiy putur etib, sosoniylarning ichki ishlariga aralashib xatto shu darajaga borib etadiki, hokimiyat egalarini taxtga oʻtkazishda ham ishtirok etganligi haqida ham maʼlumotlar keltirilgan[48].

XULOSA

Gʻarbiy Turk xoqonligi va Eron sosoniylari oʻrtasidagi oʻzaro ichki tashqi munosabatlar natijasida xar ikki davlatning xam iqtisodiy jixatdan qudratining ortishiga olib kelsada biroq ularning kuch qudratining zaiflashuviga xam olib kelganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga ilk oʻrta asrlar davrida turklar va eronliklarni aloqa oʻrnatishiga sabab boʻldi. Umuman olganda, Ilk oʻrta asrlar davrida kuchli davlat xisoblangan eftaliylarni taʼsirini ortishi qoʻshni davlatlarni mushkul axvolga solib qoʻyishi oqibatida turklar bilan sosoniylar oʻrtasida oʻzaro kelishuv bitimi imzolanishiga sabab boʻlgan boʻlsa, keyinchlaik Buyuk ipak yoʻli ustidan nazorat oʻrnatish uchun xarakatlar xarbiy kurashga aylanishiga olib keldi. Buning natijasida ikki yirik davlatlarning toʻqnashuvi yuz berib iqtisodiy zaiflashuviga olib kelganligini guvoxi boʻlish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М., 1993. – С. 56.
2. Артамонов М.И. История Хазар... – С. 135., Джуманиёзова Ф. История Тохаристанских Ябгу и Тегиншахов Кабула. – Нур Султан, 2021. - С.21.
3. Кляшторный С.Г. Хунны и тюрки // Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. – М., 1992. – С. 134.
4. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар... – Б. 40.
5. Кляшторный С.Г. Хунны... – С. 134; Peter B. Golden. An Introduction... P. 127.
6. Раимкулов А. Катта Суғд – Суғдиёна. Тарихий жараёнлар чоррахасидаги ўлка. – Тошкент: Iqtisod Moliya, 2017. – Б.11.
7. История народов Узбекистана... – С. 129.
8. Пигулевская Н.В. Византия на путях в Индию. – М - Л., 1951. – С.75. 76.
9. Раимкулов А. Катта Суғд - Суғдиёна. ... – Б 11

10. Адылов Ш. Эфталиты и западный Согд // Археология, история и культура Средней Азии: Тезисы докладов международной конференции. – Ташкент, 2002. – С. 21.
11. Бичурин Н. Я (Иакинф). Собрание сведений о народах ... – С. 284, 329.
12. Адылов Ш. Эфталиты и западный Согд // Археология, история и культура Средней Азии: Тезисы докладов международной конференции. – Ташкент: 2002. – С. 21., Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах.... – С. 284, 329. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – СПб.: Кристалл, 2003. – С. 49-52.
13. Гумилев Л.Н. Великая распря в первом тюркском каганате в свете византийских источников // Византийский временник. Издательство академии наук. – М. 1961. С.
14. Пигулевская Н.В. Византия на путях в Индию. – М - Л., 1951. – С. 203-204.
15. Дашков С.Б. Цари царей – Сасаниды. Иран III-VIII вв. в легендах, исторических хрониках и современных исследованиях. – М.: 2008.
- С.148). Ғоибов Б. Суғд конфедерациясининг шаклланиши, тараққиёти ва таназзули. – самарқанд. док дисс...2017. Б. 35.
16. Гафуров Б. Таджики. ... Кн.1. – Душанбе: Ирфон, 1989. – С. 276-277. Ғоибов Б. Суғд конфедерациясининг шаклланиши, тараққиёти ва таназзули. – Самарқанд. док дисс... – 2017. Б. 36.
17. Кляшторный С.Г. Хунны и тюрки // Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. – М., 1992. – С. 134-135.
18. Vaissière de la É. Histoire des marchands sogdiens. – P. 211–223.
19. Пигулевская Н.В. Византийская дипломатия и торговля шелком // ВВ. – М., 1947. – Т.1 (XXVI). – С. 184–196.
20. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М., 1993. – С. 47.
21. Бобоёров Ғ.Б. Марказий Осиёда VI-VIII асрларнинг 2-ярмида сиёсий-этник жараёнлар (Ўрхун-Энасой манбалари асосида): Тарих. фан. ном. ... дисс-яси. – Тошкент., 2003. – б.27.
22. Амбарцумянц А. А. Этноним «хйаона» в Авесте // Записки Восточного отделения Российского Археологического общества (ЗВОРАО): НС. – СПб., 2002. Т. I (XXVI). – С. 58.
23. Pahlavi Texts. The Bundahis-Bahman Yast, and Shayast La-Shayast. Trans. by E. W. West. Vol. 5. Part 1. – Delhi, 1987. – P. 37, 410.
24. Пигулевская.Н.В. Византия и Иран на рубеже VI и VII веков, С. 67-83., Сибиос Пелстинский, Палестинский Сборник выпуск 22 / 85. Колесников

А.И. Иран в Начале VII века. (Источники, внутренняя и внешняя политика, вопросы Административного деления. Л.1970.С. 49.

25. Симокатта Ф. История, кн. III, гл. IX, 4-11., Пигулевская.Н.В. Византия и Иран на рубеже VI и VII веков, стр. 67-83., Сибиос Пелстинский, Палестинский Сборник выпуск 22 / 85. Колесников А.И. Иран в Начале VII века. (Источники, внутренняя и внешняя политика, вопросы Административного деления. – Л.1970.С. 49.

26. 28. Golden P. B. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenga, 2006. – S. 49.

29. 30. Артамонов М.И. История Хазар. – Л.: Изд-во Государственного Эрмитажа, 1962. – С.154–156; Гумилев Л. Н. Древние тюрки... – С. 184. 185.

31. Зинатуллаев З.И Турк хоқонлиги бошқаруви даврида Марказий Осиёдаги ижтимоий-сиёсий вазият/ “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal – (SI) II / 2020. Б. 226.

32. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. М, 1972. С. 221; Peter B. Golden. An Introduction... P. 132.

33. Кляшторный С.Г. Хунны... 1992, с. 135.

34. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М.: Наука, 1967. – С. 126–132; Ўша муаллиф. Война 589 года и Гератская битва // ИООН АН Тадж.ССР. – 1960. – № 2 (23). – С. 64–74; Тургун Алмас. Уйгуры. Часть 1. – С. 85.

35. Тревер К.В. Кушаны, хиониты и эфталиты по армянским источникам IV-VII вв. (К истории городов Средней Азии) // СА. – 1954. – Вып. XXI. – С. 140.

36. Togan A.Z.V. Umumî Türk Tarihi'ne giriş. Cild I. – S. 72.

37. Тургун Алмас. Уйгуры. Часть 1. – С. 85.

38. Golden P. B. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenga, 2006. – S.50

39. Бичурин Н.Я. Собрание сведений ... Т. 1. – С. 283.

40. Бернштам А.Н. Тюрки и Средняя Азия в описании Хой Чао (726) //ВДИ, №1. М.: 1952. С. 189-190.

41. Beal S. The life of... 1990. P. 47. 50.

42. Артамонов М. И. История Хазар. – Л.: Изд-во Государственного Эрмитажа, 1962. – С. 154–156

43. Brook K.A. Hazar – Bizans ilişkileri // Türkler, 2002. – S. 473.

44. Бобоёров Ғ.Б. Марказий Осиёда... 28-29-б.

45. Golden P.B. An Introduction... – P. 135.

46. Марказий Осиёда VI-VIII асрларнинг 2-ярмида сиёсий-этник жараёнлар (Ўрхун-Энасой манбалари асосида): Тарих. фан. ном. ... дисс-яси. – Т., 2003. Б. 35.

47. Пигулевская Н.В. Византийская дипломатия и Торговля Шелком в V-VII вв. Византийский Временник. \\ М. Академик Изд. – 1947. С. 185.
48. Гумилёв Л. Қадимги турклар. Тошкент: Фан. 2007. – Б. 49.

Мухамедов Я. К.

PhD., старший преподаватель кафедры «Археология и этнология»
Национальный университет Узбекистана
mukhamedov-2017@mail.ru

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ ЗАПАДНОГО ТЮРКСКОГО КАГАНАТА С САСАНИДСКИМ ИРАНОМ

АННОТАЦИЯ

В статье на научной основе освещены и проанализированы социальные, экономические и политические отношения Западно-Тюркского каганата с Персидскими сасанидами, т.е. дипломатические переписки на основе письменных и археологических источников, а также ряд исследований, зарубежных и узбекских ученых по данному вопросу.

Ключевые слова: Западнотюркский каганат, Византия, эфталиты, Сугд, Сасаниды, Маниах, Ашина, золотая гора, Земарх, Талас, дипломатия, ябгу, каган, Великий шелковый путь, шелк, железо, Исфахан.

Muxamedov Y. K.

PhD., senior lecturer at the department of «Archeology and ethnology»
National university of Uzbekistan
mukhamedov-2017@mail.ru

DIPLOMACY RELATIONS OF THE WESTERN TURKIC KHAGANATE WITH SASSANIDS IRAN

ABSTRACT

The article scientifically highlights and analyzes the social, economic and political relations of the Western Turkic Khaganate with the Persian Sassanids, i.e., diplomatic correspondence based on written and archaeological sources as well as a number of studies by foreign and Uzbek scientists on this issue.

Keywords: West Turkic Kaganate, Byzantium, eftalites, sughd, Maniax, ashina, golden mountain, Zemarx, Talas, diplomacy, kagan, yabgu, Great silk road, silk, iron, Isfakhan.